

**СРЕДСТВА, ОБУЧАЮЩИЕ МАТЕМАТИКЕ**Г.Э. Яхшиев<sup>1</sup>, З.Ш. Ахтамова<sup>2</sup>**Аннотация**

В статье приведена информация о средствах, обучающих математике.

**Ключевые слова:** учебник по математике, учебные пособия, дидактические материалы, графическое представление, технические средства.

Matematika darsligi, o'quv qo'llanmasi dastur va didaktika talablari bilan aniqlanuvchi o'qitish maqsadlariga mos keluvchi matematika bo'yicha bilimlar asoslarini bayon etuvchi kitob hisoblanadi.

U quyidagi talablarga javob berishi lozim: a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi; b) matematika bo'yicha ma'lumotlarni sistemali va ilmiy bayon qilishi; v) uslubiy nuqtai nazardan ketma-ket joylashtirilgan yetarli sondagi turli xil masala va mashqlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek, darslik bayon qilingan material zarurligini asoslashga e'tibor berishi, masalalarning taqsimoti, o'rni va ahamiyatini aniqlashi, ko'rgazmalilik vazifasini yoritilishini ta'minlashi lozim.

O'qitish vositalariga o'quv qo'llanmalaridan tashqari, *masalalar to'plamlari, ko'rgazmali qurollar va texnika vositalari* kiradi. O'quv qo'llanmasi o'qitish jarayonida o'quvchilarga beriladigan axborotni o'z ichiga oladi. Uni to'g'ri qo'llaganda o'quvchilarga matematika fani asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi, bilimlar bilan qurollanishga va xotirani rivojlantirishga imkon beradi.

Hozirgi zamон o'quv qo'llanmalarini nazariy ma'lumot va mashqlarni o'z ichiga oladi. Teng kuchli o'quv qo'llanmalar mavjudligi bir tomondan o'qituvchining o'qitishda o'z imkoniyatlari va o'quvchilar bilim saviyalariga mos ravishda undan ijodiy foydalanishga, ikkinchi tomondan, nazariy va amaliy jixatlarni o'zaro muvofiq xolda bayon etishga, sind va uy vazifalarini taqsimlashni osonlashtiradi.

O'quv qo'llanmasidan tashqari xar bir sind uchun o'qitish vositalar tizimiga o'qituvchi *uchun kitoblar (uslubiy qo'llanmalar) va didaktik materiallar* kiradi. O'qituvchi uchun kitoblarda zarur tavsiyalar, masalalarni yechish yo'llari berilgan, taxminiy rejalashtirish keltiriladi. U o'qitishning xar bir bosqichida erishilishi zarur bo'lgan bilimlar xajmini ta'lim standartlari talablari asosida aniqlab beradi. Didaktik materiallar esa mustaqil va nazorat ishlari matnlari, testlar va ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar xamda javoblarni beradi. O'quvchilar bilan o'quv *darsligi ustida ishni* tashkil etishda birinchi qadam – masalalar matnnini o'qishga o'rgatish hisoblanadi. Masala o'qilgandan so'ng masala shartlarini ajratish va ularni qisqa yozuvlarda qayd etish taklif etiladi va bundan so'ng suxbat-izoxlash o'tkaziladi.

O'quv qo'llanmasi ko'rgazmaliliga qo'yiladigan talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) *bilish vazifasi* shundan iboratki oddiydan murakkabga boriladi, o'quvchilar faoliyatini ko'rgazmalilik vosita va usullari bilan boshqaradi, nazorat va kommunikativ amallarni bajarishga imkon beradi;

b) *interpretasion funksiyasi*, turli xil belgi va rasmlar orqali mavzu va tushunchalar konkretlashtiriladi;

v) *estetik vazifalari*- uning ko'rinishi va bezalishi o'quvchilarda go'zallikni va estetik did kabi tuyg'ularni uyg'otishi uchun xizmat qilishi zarur.

**Didaktik materiallar** o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning masalalar yechish bo'yicha mustaqil ishlarni, individual va frontal ravishda kursning mavzulari bo'yicha tekshirish nazorat ishlari

<sup>1</sup>Яхшиев Гайрат Эркинович, преподаватель математики академического лицея Бухарского медицинского института, Узбекистан.

<sup>2</sup>Ахтамова Зулфия Шерали кизи, преподаватель математики школа №35 г. Бухары, Узбекистан.

uchun materiallarni o'z ichiga oladi. U xar bir mavzu bo'yicha 4 ta va undan ortiq mustaqil ish va mavzular bo'yicha qo'shimcha mustaqil ishlarni o'z ichiga oladi. Ularni o'qitishda qo'llash xususiyati shundan iboratki, o'qituvchi ular yordamida mustaqil ishlarini tashkil etishi va nazoratlarni amalgalash oshirishi mumkin. Shuning uchun didaktik materiallarga xar bir chorak bo'yicha yakuniy nazoratlar uchun yozma ishlar bilan birga testlar xam beriladi. O'qitishning **texnik vositalariga** kinofilm, diafilm, diapozitiv, kodopozitiv kabi ko'rgazmalilik vositalari va ularni ekranga tushiruvchi kinoapparat, diaprojektor, epidiaskop kabi asboblar kirib, bunga yana tele-radio, video-audio vositalar xam kiradi. Bu ekran vositalariga EXM kompyuterlari xam kirib, darslarni jonli qiziqarli o'tilishini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Ulardan foydalanishning o'ziga xos chegaralari, uni qo'llash sanitariya-gigiyena qoidalari mavjud, bunga o'qituvchilar qat'iy e'tibor berishlari talab etiladi. **Texnik vositalarni** o'qitishda qo'llashning asosiy xususiyati o'quvchilarni o'quv vaqtidan unumli foydalanishga, bilimlarni ko'rgazmali ravishda egallab olishlari uchun imkon berishi hisoblanadi. Bulardan tashqari, grafikaviy ko'rgazmalilik vositalari xam mavjud bo'lib, matematika o'qitishda, ayniqsa, geometriya darslarida keng qo'llaniladi. Bu vositalar turkumiga rasm, diagramma, sxema, va boshqa grafikaviy tasvirlar, grafikaviy modellar kiradi. Ularni qo'llash xususiyatlariga ko'ra: jadvallar, diafilmlar, diapozitivlar va transporantlarga ajratish mumkin.

*Фойдаланилган адабиётлар:*

1. Alihanov S. Matematika o'qitish metodikasi. – T:O'qituvchi, 1993 y.

© Г.Э. Яхшиев , З.Ш. Ахтамова, 2019.

---